



Yunusov Ulug'bek Odiljonovich,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti
ulugbekodiljonovich@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0009-3283-1793>

O'SMIRLARDA GENDER YONDASHUV ASOSIDA OILAVIY-QADRIYATLI MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISH

<https://doi.org/10.65185/mojgo.vi.261>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'smir yoshdagi o'quvchilarda gender yondashuv asosida oilaviy qadriyatlarga nisbatan munosabatni shakllantirish masalasi yoritilgan. Unda gender tushunchasining mohiyati, ayol va erkak rollarining ijtimoiy jihatlari ta'siri hamda ularning tarbiyaviy ahamiyati tahlil etilgan. Muallif oila institutining jamiyatdagi o'rnini, uning ma'naviy-axloqiy qadriyatlar tizimidagi ahamiyatini ochib beradi. Pedagogik nuqtayi nazardan, o'quvchilarda oilaga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantirishda gender tenglik, milliy an'analar va ma'naviy merosning uyg'unligi asosiy mezon sifatida belgilangan. Shuningdek, maqolada o'qituvchilar va ota-onalar uchun amaliy tavsiyalar, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

Tayanch so'zlar: gender yondashuv, oilaviy qadriyatlar, o'smirlik davri, ijtimoiylashuv, axloqiy tarbiya, jinsiy rollar, pedagogik jarayon, ma'naviy meros, insonparvarlik, oila instituti, qadriyatli munosabat, gender tenglik.

Аннотация. В данной статье освещается вопрос формирования отношения к семейным ценностям на основе гендерного подхода у подростков. В ней анализируется сущность понятия гендера, влияние социальных аспектов женских и мужских ролей, а также их воспитательное значение. Автор раскрывает роль института семьи в обществе, его значение в системе духовно-нравственных ценностей. С педагогической точки зрения, гендерное равенство, гармония национальных традиций и духовного наследия определены в качестве основных критериев формирования у учащихся ценностного отношения к семье. Также в статье представлены практические рекомендации для учителей и родителей, описаны существующие проблемы и пути их решения.

Ключевые слова: гендерный подход, семейные ценности, подростковый возраст, социализация, нравственное воспитание, гендерные роли, педагогический процесс, духовное наследие, гуманизм, институт семьи, ценностное отношение, гендерное равенство.

Annotation. This article explores the issue of fostering a gender-based approach to family values in adolescents. It analyzes the essence of the concept of gender, the influence of social aspects of women's and men's roles, and their educational significance. The author reveals the role of the family institution in society, its significance in the system of spiritual and moral values. From a pedagogical point of view, gender equality, the harmony of national traditions and spiritual heritage are defined as the main criteria for forming a value-based attitude towards the family in students. Also, the article provides practical recommendations for teachers and parents, describes existing problems and ways to solve them.

Keywords: gender approach, family values, adolescence, socialization, moral education, gender roles, pedagogical process, spiritual heritage, humanism, family institution, value attitude, gender equality.

Kirish. Bugungi kunda zamonaviy oilalarni qiynab kelayotgan ko'plab muammolarning ildizi gender tenglik borasidagi bilim, malaka va ko'nikmalarining yetishmasligi,

o'z huquqlarini jinsiy nuqtayi nazardan yetarli darajada talab qila olmaslikka borib taqaladi. Afsuski, oiladagi ajrashishlar, kelishmovchiliklar sabab uysiz, joysiz qolayotgan, hattoki, bolalarining

elementar talablarini-da, taminlay olmayotganlar uchrab turibdi. Lekin aynan oila sohasida erkak va ayolning tenglik g'oyasi nozik masaladir. Bu g'oyani amaliyotga tatbiq etish murakkab jarayon bo'lib, unga amal qilish zamonaviy mustahkam oila uchun asos bo'ladi¹.

Gender lotin tilida *genus* – “urug‘, zot, jins, kelib chiqish” ma’nolarini berib, biologik jins tushunchasidan farqli ravishda jinsga oid ijtimoiy xususiyatlarni anglatadi. Biologik jins, ya’ni jinsiy identifikatsiya esa inson tabiatining tub jihati sifatida erkak va ayolni ajratib turuvchi o‘ziga xos xususiyatlardir².

Gender tenglik ayollar va erkaklar, qiz va o‘g‘il bolalar uchun teng huquq, mas’uliyat, imkoniyat, qadriyat va natija hisoblanadi. Gender tenglik faqat ayollarga taalluqli masala bo‘lmasdan, u erkaklarning ham huquq va majburiyatlarini anglatadi. Gender tenglik insonning asosiy huquqlari bo‘lib, uni ta’minlashda ayollarning ham, erkaklarning ham ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy manfaatlar, ehtiyojlari va ustuvorliklari hisobga olinadi³.

Gender psixologiyasi nuqtayi nazaridan olib qaralganda, o‘g‘il va qiz bolalarni ijtimoiylashtirish jarayonidagi jinsiy rol yondashuvining asosiy g‘oyalarini pedagoglar va ota-onalarning quyidagi qarashlari majmuasi sifatida ifodalash mumkin:

- ikkita biologik jins – ayol va erkak mavjud bo‘lib, ularga ikkita rol, ikkita “hayot ssenariysi”, ya’ni ayollik va erkaklikka mos kelishi kerak;

- bu rollar ahamiyat jihatidan teng, biroq mazmuni bo‘yicha farqli va maqomi bo‘yicha teng emas⁴;

Bunda ayol va erkak rollari o‘rtasidagi farqlar insonning o‘zini o‘zi anglashining asosiy sohalarida – oilaviy va ijtimoiy (kasbiy, ijtimoiy va boshqalar) hamda psixologik fazilatlar (ayollik va erkaklik)da, shuningdek, ayol va erkak mehnatining tarkibida seziladi.

Asosiy qism. Bugungi kunda dunyo aholisining yarmini tashkil qiluvchi ayollarning huquqi, erki

va ma’naviy manfaatlarini ta’minlash, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli hamda siyosiy faolligini oshirish, o‘z qobiliyatlarini namoyon eta olishlari uchun teng imkoniyatlar yaratish masalasi O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rilmoqda. Shunday ekan, jamiyatning ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini saqlab qolgan holda, gender yondashuv asosidagi oilaviy-qadriyatli munosabatlarni yanada takomillashtirish masalasi – dunyo hamjamiyatiga yuz tutayotgan mamlakatimiz va mintaqamizning asosiy maqsadi.

Pedagogikada gender yondashuvining maqsadi esa madaniyat egasi, fuqaro, o‘zini maksimal darajada namoyon eta oladigan va o‘z qobiliyatlarini ochishga qodir bo‘lgan axloqiy shaxsni gender jihatdan tarbiyalashdan iborat⁵.

Adabiyotlar tahlili. Pedagogika fanlari doktori, professor Vitaliy Aleksandrovich Slastyonin fikriga ko‘ra⁶, qadriyatli munosabat – bu shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatni o‘zida aks ettiruvchi shaxsning ichki pozitsiyasi. U shaxsning muhim xususiyati bo‘lib, uning dunyo bilan o‘zaro munosabatini belgilaydi va xulq-atvorini tartibga soladi.

Bu jarayonda har bir insonning ijtimoiylashuvida oila muhim o‘rin tutadi. Oilaviy qadriyatlar haqida gapirar ekanmiz, avvalo, u nima ekaniga oydinlik kiritib olishimiz lozim. Oilaviy qadriyatlar bu jamiyatning ma’naviy va axloqiy asoslarini shakllantiruvchi, oila institutining barqarorligini ta’minlovchi ijtimoiy qadriyatlarning bir ko‘rinishi, normativ tamoyillar va me’yorlar majmuyidir⁷. Qadriyatlar imon, e’tiqod, vijdon, diyonat, ma’naviyat kabi o‘lmas va yengilmas tuyg‘ular samarasi bo‘lib, bu qadriyatlar oliy darajadagi odob-axloq, bilim va ma’rifatning asosi hisoblanadi. Ularda tinchliksevarlik, haqsevarlik, insonparvarlik, ma’rifatparvarlik, mehnatsevarlik hamda bunyodkorlik kabi umuminsoniy, deya e’tirof

¹ Эгамбердиева Н., Мусурманова О. Оилада гендер тенглиги тарбиясида ёш хусусиятлари: монография. – Тошкент, 2023.

² Ҳоликова М., Ишанханова Г., Пўлатова Ш. Гендер тенглиги: ғоядан қонунга қадар [матн]: услубий қўлланма. – Тошкент: Akademnashr, 2021. – 208 б.

³ Мусурманова О. Замонавий оилада гендер тенглиги масалалари: монография. – Тошкент: “Mahalla va oila” нашриёти, 2024. – Б. 8.

⁴ Клецина И.С. Гендерная психология / Словарь гендерных терминов. – Москва, 2002. – С. 43.

⁵ Елена Николаевна Каменская. Гендерный подход в педагогике: автореф. ...дис. докт. пед. наук. – Ростов-на-Дону, 2006.

⁶ Ершова Светлана Михайловна. Теоретическое осмысление категорий «Ценность» и «Ценностные отношения». Текст научной статьи по специальности «Психологические науки» // <https://cyberleninka.ru/article/n/teoreticheskoe-osmyslenie-kategoriy-tsennost-i-tsennostnye-otnosheniya/viewer>

⁷ <https://oilaqadriyat.uz/oilaviy-qadriyatlar-nima/>

etilgan, jahon tamadduni taraqqiyotiga bemisl ulush qo'shgan an'analar hosilasi mujassam⁸.

Shunday qilib, oila a'zolari o'rtasidagi hurmat, mehr-muhabbat, halollik, hamjihatlik kabi muhim axloqiy tamoyillar, urf-odat va an'analar tizimi oila ichidagi munosabatlarni mustahkamlaydi va avloddan-avlodga o'tib keladi. Oilaning shakllanishi va rivojlanish qonuniyatlarini o'rgangan demograf Andrey Gavrilovich Volkovga ko'ra, oila jamiyatning eng muhim bo'g'inlaridan biridir. U mehnat ko'nikmalarini saqlash, to'plash va yangi avlodlarga uzatishda ishtirok etadi, ma'naviy madaniyatning uzluksizligini ta'minlaydi. Oila insonlar uchun ijtimoiy ideallar va xulq-atvor namunalarining birinchi manbayi bo'lib xizmat qiladi. Uning iste'mol va odamlarning birgalikdagi turmushini tashkil etishdagi ahamiyati kattadir. Zero, aholining ko'payishi va davom etishi ham oilaga bog'liq⁹.

Dunyo mamlakatlarida oilaviy qadriyatlar har bir millatning madaniyati, urf-odatlar va ijtimoiy hayoti, e'tiqodlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular jamiyatni barqaror holatda saqlab turishga katta hissa qo'shadi.

Oilaviy qadriyatlar insonlar orasidagi munosabatlar tizimini tartibga soluvchi, individual va jamoaviy mas'uliyatni shakllantiruvchi, shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasida muhim o'rin tutuvchi qadriyatlardir. Ular oilaning mustahkamligi, tarbiya jarayonlari, madaniy merosning saqlanishi va uzatilishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Oilaviy qadriyatlar nikohga bo'lgan munosabatda, oilaviy hayotning maqbulligida, ajrashishning salbiy idrok etilishida va albatta, yuqori reproduktiv munosabatlarda namoyon bo'ladi. Oilaviy qadriyatlarning an'anaviyligi shundan iboratki, bola uchun ijtimoiylashuvning asosiy bosqichi aynan oilada sodir bo'ladi. Ota-onalar bolaga axloqiy ko'nikmalarni, xulq-atvor qoidalarini, shu jumladan, ijtimoiy va madaniy me'yorlarni o'zlashtirish jarayonida yordam beradi¹⁰.

Rossiya pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Urbanovich Lyubov Nikolaevna katta maktab yoshi oilaga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantirish uchun sezgir davr ekanini, o'smir aynan shu paytda

⁸ Норкулов Х. Ёш келин ва куёвларни оилавий ҳаётга тайёрлаш. – Тошкент: "Mahalla va oila" нашриёти, 2024. – 144 б.

⁹ А.Г. Волков. Семья – объект демографии. – Москва: «Мысль», 1986

¹⁰ <https://oilaqadriyat.uz/>

oilaviy qadriyatli munosabatni namoyon etuvchi xulq-atvor idealiga intila boshlashini ta'qidlaydi. Bu yoshda o'quvchilarda "kattalik" hissi paydo bo'ladi, o'zlikni anglashda sifat o'zgarishlari yuz beradi, kelajakka intilish kuzatiladi. Avval o'zlashtirilgan odatlar, qarashlar, atrofdagi hodisa va odamlarga munosabat asta-sekin xulq-atvor tamoyillari va me'yorlariga aylanadi, dunyoqarash shakllanadi. Hissiy ta'sirchanlik yaqqol namoyon bo'ladi¹¹.

Pedagogika fanlari nomzodi Chigrina Anna Aleksandrovnaning fikricha, oilaviy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda hayotiy o'z yo'lini belgilash arafasida turgan katta sinf o'quvchisi yoshi, o'smirlik – eng muhim davr. Chunki bu yoshning eng qimmatli ijtimoiy-psixologik yutug'i o'z ichki dunyosini kashf etish, hayotiy muhim qadriyatlarni o'zlashtirish, atrofdagilar va yaqinlar bilan mustahkam munosabatlar o'rnatish, o'ziga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish davridan iboratligidir. Shu sababli yuqori sinf o'quvchilari o'zlarini kelajakda mas'uliyatli ota yoki ona sifatida ko'rishlari uchun ushbu jarayonlarni an'anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlash va innovatsion jamiyat sharoitida ularning yangi tizimini shakllantirishga yo'naltirish zarur bo'ladi¹².

Yuqori sinf o'quvchilarida oilaviy an'analarga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantirish borasida ijtimoiy munosabat va gender qadriyatlar asosida oilaviy-qadriyatli munosabatlarni shakllantirish katta imkoniyatlarga ega bo'lib, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, tarbiyani insonparvarlashtirish, yuqori sinf o'quvchilarini oilaviy an'anaviy madaniyat bilan tanishtirishga imkon beradi.

Ushbu qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirish yo'lida pedagogikaning o'rni beqiyos, albatta. Ta'limni aksiologiyalashtirish va voqelikning eng muhim jihatlariga qadriyatli munosabatni

¹¹ Урбанович Любовь Николаевна. Воспитание ценностного отношения к семье у старшеклассников во внеучебной деятельности: автореф. ...дис. канд. пед. наук. – Смоленск, 2008 // <https://www.dissercat.com/content/vospitanie-tsennostnogo-otnosheniya-k-seme-u-starsheklassnikov-vo-vneuchebnoi-deyatelnosti/read>

¹² Чигрина Анна Александровна. Социально-культурные условия формирования ценностного отношения старшеклассников к семейным традициям: автореф. ...дис. канд. пед. наук. – Тамбов, 2013. // <https://www.dissercat.com/content/sotsialno-kulturnye-usloviya-formirovaniya-tsennostnogo-otnosheniya-starsheklassnikov-k-seme/read>

rivojlantirishda maktab dasturining insonparvarlik va madaniy yo'naltirilganligi bilan bog'liq holda yuqori sinf o'quvchilarida oilaviy an'analarga qadriyatli yo'nalishlarni shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Qadriyatlar tizimida e'tibor qaratish zarur bo'lgan quyidagi xususiyatlar mavjud bo'lib, ular: o'sib kelayotgan avlodni oilaga hurmat va mas'uliyatli munosabatda bo'lishga o'rgatish; insonning shaxsiy o'zini o'zi anglashi uchun oilaning qadr-qimmatini, har qanday jamiyat va davlatning asosi sifatida oilaning ahamiyatini tushunishdan iborat. Oila ijtimoiy institut sifatida xalq tarixida madaniy vorisilikni, an'analarni saqlab qolish va qo'llab-quvvatlashning asosiy shartidir. Jamiyat a'zolarining farovonligi va salomatligi esa milliy xavfsizlikning ajralmas sharti sifatida ko'riladi¹³.

Xulosa va takliflar. Pedagogika fani va amaliyotida bo'lajak oila a'zosining axloqiy fazilatlarini tarbiyalash, oilaga nisbatan mas'uliyatli

munosabatda bo'lish masalasiga har doim tarbiyaviy ishlarining asosiy yo'nalishi sifatida qarab kelingan. Biroq bu masala bugungi kungacha to'liq hal etilmagan, bu esa obyektiv qiyinchiliklar bilan bog'liq. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

– maktab o'quvchilarining darsdan tashqari faoliyatida oilaviy qadriyatli munosabatlarni shakllantirish bo'yicha o'quvlarning mavjud emasligi;

– maktablarda tashkil etiladigan tarbiyaviy tadbirlarning tasodifiy va tizimsiz xarakteri, zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitlarga mos keladigan uslubiy qo'llanmalar, tavsiyalar va dasturlarga bo'lgan ehtiyoj;

– yosh avlodni ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida oila qurishga yo'naltiruvchi, tarbiyaviy ishlar bo'yicha pedagog kadrlarning yetarli darajada tayyorlanmaganligi.

Yuqori sinf o'quvchilarida oilaga nisbatan qadriyatli munosabatni tarbiyalashning dolzarbligi nafaqat tarbiya amaliyotiga innovatsion yondashuvlarni joriy etishga, balki, eng avvalo, milliy pedagogik merosni chuqur anglashga va mavjud tarbiyaviy-pedagogik g'oyalarni tahlil qilishga undaydi.

¹³ Чигрина Анна Александровна. Социально-культурные условия формирования ценностного отношения старшеклассников к семейным традициям: автореф. ...дис. канд. пед. наук. – Тамбов, 2013.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Holiqova M., Ishanxanova G., Po'latova Sh. Gender tengligi: g'oyadan qonunga qadar [matn]: uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Akademnashr, 2021. – 208 b.
2. Musurmanova O. Zamonaviy oilada gender tengligi masalalari: monografiya. – Toshkent: "Mahalla va oila" nashriyoti, 2024. – B. 8.
3. Norqulov H. Yosh kelin va kuyovlarni oilaviy hayotga tayyorlash. – Toshkent: "Mahalla va oila" nashriyoti, 2024. – 144 b.
4. Елена Николаевна Каменская, доктор педагогических наук, профессор.
5. Ершова Светлана Михайловна. Теоретическое осмысление категорий «Ценности» и «Ценностные отношения»: текст научной статьи по специальности «Психологические науки» // <https://cyberleninka.ru/article/n/teoreticheskoe-osmyslenie-kategoriy-tsennost-i-tsennostnye-otnosheniya/viewer>
6. <https://oilaqadriyat.uz/oilaviy-qadriyatlar-nima/>
7. Волков А.Г.. Семья – объект демографии. – Москва: «Мысль», 1986.
8. <https://oilaqadriyat.uz/>
9. Чигрина Анна Александровна. Социально-культурные условия формирования ценностного отношения старшеклассников к семейным традициям: автореф. ...дис. канд. пед. наук. – Тамбов, 2013. // <https://www.dissercat.com/content/sotsialno-kulturnye-usloviya-formirovaniya-tsennostnogo-otnosheniya-starsheklassnikov-k-seme/read>
10. Чигрина Анна Александровна. Социально-культурные условия формирования ценностного отношения старшеклассников к семейным традициям: автореф. ...дис. канд. пед. наук. – Тамбов, 2013.
11. Урбанович Любовь Николаевна. Воспитание ценностного отношения к семе у старшеклассников во внеучебной деятельности: автореф. ...дис. канд. пед. наук. – Смоленск, 2008. // <https://www.dissercat.com/content/vospitanie-tsennostnogo-otnosheniya-k-seme-u-starsheklassnikov-vo-vneuchebnoi-deyatelnosti/read>
12. Клецина И.С. Гендерная психология / Словарь гендерных терминов. – Москва, 2002. – С. 43.